


Naqd pul muomalasi bo'yicha qisqacha sharh

2024 yil yanvar-iyun oylarida umumiy pul tushumlari **385 trln.** so'mni tashkil etib, 2023 yilning mos davriga nisbatan **30 foiz**ga o'sgan.

Hisobot davrida, umumiy pul tushumlarida terminal orqali tushumlar ulushi 2023 yil I yarim yilligidagi **38 foiz**dan **41 foiz**ga o'sib, uning tarkibida savdo va xizmatlar sohasidan terminal tushumlari salmog'i **40 foiz**dan **45 foiz**ga o'sishi kuzatildi.


1-rasm: Umumiy pul tushumlari tarkibi va dinamikasi



2024 yil yanvar-iyun oylarida banklar orqali naqd pul aylanmasi hajmi **458 trln.** so'mni (*naqd pul tushumlari – 227 trln.so'm, berilgan naqd pullar – 231 trln.so'm*) tashkil etgani holda, 2023 yilning mos davriga nisbatan **24 foiz**ga oshdi.

2-rasm: Naqd pul tushumlari hajmi va tarkibi dinamikasi


trln.soʻmda



Banklarga naqd pullar tushumining tarkibiy tuzilishida keskin o'zgarishlar kuzatilmadi.

3-rasm: Banklardan naqd puldagi chiqimlar hajmi va ularning maqsadlari bo'yicha tarkibiy dinamikasi

trln.soʻmda




2024 yil yanvar-iyun oylarida bank kartalariga **468 trln.** soʻm mablagʻlar kirim qilingan. Bu koʻrsatkich 2023 yil mos davriga nisbatan **1,3 barobarga** oshdi va ushbu davrda bank kartalaridagi **107 trln.** soʻm mablagʻlar naqdlashtirib olingan.

2024 yil yanvar-iyun oylarida bank kartalariga kelib tushgan mablag'larning **23 foizi** naqdlashtirib olingan bo'lib, bu ko'rsatkich 2023 yilning mos davrida **24 foizni** (2022 yilda 28 foizni) tashkil etgan.

4-rasm: Bank kartalariga kelib tushgan mablag'lar va ularni naqdlashtirish hajmlari dinamikasi

trln.so'mda



Banklarga tushgan naqd pullarning ularga bo'lgan talab o'rtasidagi farq Markaziy bank tomonidan muomalaga qo'shimcha naqd pullarni chiqarish orqali ta'minlab borildi.

Jumladan, Markaziy bank tomonidan joriy yilning 6 oyi mobaynida muomalaga qo'shimcha **4,1 trln.** so'm naqd pullar chiqarildi.

2024 yil 1 iyul holatiga umumiy pul massasidagi naqd pullarning ulushi **21,1 foizni** tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **3,7 foiz** bandga pasaydi.

5-rasm. Muomaladagi naqd pullarning pul massasidagi ulushi dinamikasi

